1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi.

1. Imloviy jihatdan to‘g‘ri yozilgan so‘zlar qatorini aniqlang.
A) *fotoapparat, manbaa, muallif,*
B) *hokimiyat, tashshakur, xushmuomala*
C) *tavsilot, yettovlon, voyvoylamoq*
D) *devoriy, fidoyilik, ko‘kalamzor*

2. Qaysi gapda vergul tushirib qoldirilsa, gap mazmunida o‘zgarish kuzatiladi, ammo ishoraviy xatolik yuzaga kelmaydi?
A) Osmon ko‘m-ko‘k, go‘yoki dengiz kabi kishi qalbini hayajonga to‘ldirib yuboradi.
B) Qasr ancha baland edi, devorlar ortidan ham yaqqol ko‘zga tashlanadi.
C) Atrofda hech kim yo‘q ekan, hovli ham har kungidan osuda edi.
D) Kitob juda qiziq, rasmlar bilan bezatilgani uchun bolajonlarga ham yoqdi.

3. Shunda ulardan biri o‘z hamrohlariga qarata:
“Kelinglar, shu yigitni ham safimizga qo‘shib olaylik”, – debdi. Ushbu gapda qo‘llangan kelishik qo‘shimchalari haqida berilgan to‘g‘ri hukmnni toping.
A) Barcha kelishik qo‘shimchalari belgili qo‘llangan.
B) Chiqish kelishigini qaratqich kelishigi bilan almashtirib qo‘llash mumkin.
C) Jo‘nalish kelishigini o‘rin-payt kelishigi bilan almashtirib qo‘llash mumkin.
D) Tushum kelishigi qo‘shimchasi noo‘rin qo‘llangan

4. Qaysi gapda shaxs oti qo‘llanmagan?
A) Amir Temur o‘g‘lining qilich tutgan qo‘li baquvvat bo‘lsin deb, kecha-kunduz mashq qildirdi.
B) Hasanali bekning yechinib yotishini kutib turardi, chunki uni yotqizib, yoqilgan shamni o‘zi bilan narigi hujraga olib chiqmoqchi edi.
C) Tojixon safardan ikki kun kechikib qaytibdi, shuning uchun ishlaridan hech ko‘ngli tinchimayotgan ekan.
D) Mabodo majlisdan vaqtida chiqolmay qolsam, qo‘ni-qo‘shnilarga bosh bo‘lib, borib kelaveringlar.

5. Turob To‘laning “Do‘nan” hikoyasi haqida berilgan to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.
A) Asarda mansabdorlarning adolatsizligi, oddiy xalqqa zulm qilib, ularning mol-mulklarini o‘zlashtirib olganliklari ochib berilgan.
B) Hikoyada har bir inson o‘z oldiga maqsad qo‘yar ekan buni amalga oshirishda chin ustoz kerakligi ta’kidlangan.
C) Asarda insonlar va hayvonlar o‘rtasidagi samimiy munosabat, mehr-muravvat hamda sof do‘stlik rishtalari haqida so‘z borgan .
D) Hikoyada insonlarning hayvonot olamiga bo‘lgan mehri ulug‘lanib, sevimli jonzotini boshqa odam qo‘liga topshirishdan ko‘ra uning o‘limni afzal ko‘rgan qahramon holati tasvirlangan.

6. Qaysi gapda qo‘llangan ko‘makchini unga ma’nodosh bo‘la oladigan kelishik qo‘shimchasi bilan almashtirish mumkin?
A) U ham sen kabi yoshligidan fantastik asarlar o‘qishni yaxshi ko‘rardi.
B) Yuksak qoyalardan shiddat bilan qo‘zg‘algan burgut suruvdagi qo‘zichoqni ildi-yu ketdi.
C) Men ham sizlar bilan shahar aylanishga boraman.
D) Bola uyalgani uchun bu yerdan tezroq ketishga harakat qilgan.

7. "Kuntug'mish" dostoni haqida to'g'ri hukmni toping.
A) Kuntug'mish o'zining betakror go'zal yorini uzukdagi suratdan ko'rib qoladi va unga erishish uchun safarga otlanadi.
B) Kuntug'mish voqea so'ngida bahodirlikni shohlikdan ustun qo'yib, ota meros taxtga chiqishdan bosh tortadi.
C) Kuntug'mish o'z yoriga yetishish uchun Azbarxo'ja bilan do'st tutinadi, quduqda yotgan ajdarni yengib, turli qahramonliklar ko'rsatadi.
D) Kuntug'mish o'z farzandlarini, ayolini yo'qotgandan so'ng podshoh emas, devona bo'lib yashashni afzal ko'ra boshlaydi.

8. *Ajoyib milliy urf-odatlarimiz odamlarni hamjihatlikka, birodarlikka va samimiyatga chorlaydi.*
Ushbu gapda qatnashgan to'ldiruvchilar haqida xato berilgan hukmni aniqlang.
A) gapda tub va yasama so'z bilan ifodalangan to'ldiruvchi qatnashgan.
B) gapda vositali va vositasiz to'ldiruvchi qatnashgan.
C) gapdagi barcha to'ldiruvchilar kesimga bevosita tobelangan.
D) gapda tobe va hokim bo'lak vazifasida kelgan to'ldiruvchi(lar) qatnashgan.

9. Abdulla Qahhorning "Bemor" hikoyasi haqida berilgan to'g'ri hukmni aniqlang.
A) Hikoyada o'sha davrdagi insonlarning qiyin ahvolidan davlat amaldorlari o'z manfaatlari yo'lida foydalanganligi qoralangan.
B) O'z ukasi og'ir xasta bo'lib qolsa-da, jamiyatdagi muamolar, turmushdagi qiyinchiliklar sabab undan xabar olmayotgan, yordam berolmayotgan insonning iztiroblari aks etgan.
C) Asarda iqtisodiy-madaniy qoloqlikning oqibatida butun bir jamiyat bemorga aylangani ochib berilgan.
D) Asarda urushning oqibati chekka qishloqdagi oilalarga ham o'z ta'sirini o'tkazgani ularning turmush darajasini qiyinlashtirganligi aks etgan.

10. Qaysi javobdagi gapda "bitmoq" so'zi "tugamoq" ma'nosida kelgan?
A) Tig' yarasi bitishi mumkin, ammo til yarasi bitmaydi.
B) Shodligim ko'kka sig'mas, bitmas baxtim bor manim.
C) Mayli, unga bitmasam, mayli, na bir g'azal, na bir musaddas,
D) Bu cho'llarda na gul, na bir mevali daraxt bitadi.

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi.

11. Ushbu sodda gaplarni quyidagi qaysi grammatik vosita yordamida mazmun va grammatik jihatdan to'g'ri bog'lash mumkin?
1. Olim kishilar har yerda aziz va hurmatlidir.
2. Har vaqt ilm olish ilinjida bo'l.
A) bo'lsa B) shuning uchun C) chunki D) ammo

12. Gapdagi so'zlarning mazmun va grammatik jihatdan bog'lanishi to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.
Katta maqsadlar yo'lida intilayotgan mehnatkash insonni asrab-avaylash, uning kuchidan oqilona foydalanish bugungi kun uchun ham ahamiyatlidir.
A) *katta maqsadlar, yo'lida asrab-avaylash*
B) *insonni asrab-avaylash, maqsadlar ahamiyatlidir*
C) *asrab-avaylash ahamiyatlidir, kuchidan foydalanish*
D) *oqilona foydalanish, intilayotgan mehnatkash*

13. Fitratning "Abulfayzxon" dramasida Abulfayzxonning shaxsiy xatolari va uning hukmdor sifatidagi zaifliklari tasvirlanadi. Quyidagi harakatlardan qaysi biri Abulfayzxon fojiasining asosiy sababini ochib beradi?
A) Uning davlat masalalarida yaqin maslahatchilariga haddan tashqari ishonishi
B) Xalq bilan aloqani yo‘qotib, o‘z hukumatini zulm bilan boshqargani
C) Chet davlatlarning siyosiy bosimiga qarshi kurasha olmagani
D) Faqat diniy masalalarni davlat boshqaruvidan ustun qo‘ygani

14. *So‘z bilan ifodalangan har qanday fikr dunyoni harakatlantiruvchi kuchdir.*
Ushbu gap haqida berilgan to‘g‘ri ma’lumotni aniqlang.
A) Gapda hokim qismi qaratqich aniqlovchi vazifasida kelgan holli so‘z birikmasi qatnashgan.
B) Gapda hokim qismi kesim vazifasida kelgan aniqlovchili so‘z birikmasi qatnashgan.
C) Gapda hokim qismi to‘ldiruvchi vazifasida kelgan aniqlovchili so‘z birikmalari qatnashgan.
D) Gapda hokim qismi to‘ldiruvchi vazifasida kelgan to‘ldiruvchili so‘z birikmasi qatnashgan.

15. Abdulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani voqealari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
A) Qobil do‘stlarining ko‘magi bilan kamida ellik nafar yigit qo‘riqlab yotgan o‘rda qo‘rg‘onidan o‘tadi va zindondagi Sultonalini qutqaradi.
B) Sultonali mansabga erishish umidida do‘sti Anvarga xiyonat qiladi va buning evaziga sarmunshiylik lavozimiga loyiq ko‘riladi.
C) Anvar do‘sti Sultonalining qilgan xiyonatiga javoban uni mulzam qilish maqsadida xon o‘rdasiga ulkan bir jasorat bilan kirib boradi.
D) Anvarning muvaffaqiyatini ko‘ra olmagan kimsalar Anvar bilan xonning orasini buzish maqsadida Ra’noning go‘zalligi ta’rifini xonga yetkazadilar.

16. Qaysi gap(lar)da // belgisi o‘rnida tire tinish belgisi qo‘yiladi?
1. Tinchlik // farovon hayot manbayi.
2. Samimiylik ham // xuddi husn va aql kabi ehson.
3. Vazifamiz // dushmanlarni chegaramizdan o‘tkazmaslik.
4. Go‘zal chehra // o‘z nomi bilan go‘zal.
A) 1, 2, 3 B) faqat 1, 4 C) faqat 1, 3 D) faqat 2, 4

17. Alisher Navoiyning “ Farhod va Shirin” dostoni haqida to‘g‘ri ma’lumot(lar) berilgan javobni aniqlang.
1. Farhod Arman yurtiga shoh Xusrav qo‘shin tortib kelganligi va malika Mehinbonu ham uning go‘zal Shirinni qutqarish, ularga yordam berish maqsadida safarga chiqadi.
2. O‘zini Farhoddan ishqda zabun, kuchda ojiz va ma’naviyatda tuban ekanligini anglagan Xusrav uni yuzma-yuz olishuvda hech jihatdan yengolmagach, makr-hiyla bilan mahv etmoqchi bo‘ladi.
3. Farhod Arman yurtida mamlakatni adolat bilan boshqarayotgan malika Mehinbonu mehrini, uning jiyani Shirinning muhabbatini qozonadi.
4. Mehinbonu bilan Xusrav yarashib olishadi. Mehinbonu jiyanini unga berishga rozi bo‘ldi, lekin Shirin bundan norozi bo‘lib, o‘zini-o‘zi o‘ldirdi.
A) 1, 3 B) 2, 3, 4 C) 2, 3 D) 1, 4

18. Berilgan gap haqida to‘g‘ri hukmni toping.
Zamon tez, fursat oz, har lahza ziqdir,
Har lahza ziqligi bilan qiziqdir.
Hayot yo‘li nadir? Qabr toshida
Ikki sana aro qisqa chiziqdir...

A) Kesimlar bir turkum bilan ifodalangan.
B) Barcha sodda gaplarda egalar qatnashgan.
C) Gaplar faqat bosh bo‘laklardan tashkil topgan.
D) Kesimning tuzilishiga ko‘ra bir turi qatnashgan.

19. Asqad Muxtorning "Chinor" romani haqidagi to‘g‘ri hukmni toping.
A) Asarda bir zumlik qo‘rquv sabab urushdan qochgan, so‘ng butun umr vijdon azobida yashagan obraz bor.
B) Romanda qasos o‘tida yongan, o‘zini va o‘zgani umri davomida ayblab o‘tgan qahramon bor.
C) Asarda o‘z milliy an'analarini unutgan, onasidan uzoqda, yolg‘izlikda yashagan obraz ishtirok etgan.
D) Urushdan qaytib, o‘z yurtida yangidan hayot qurmoqchi bo‘lgan, ammo niyatiga yetolmagan inson haqida so‘z borgan.

20. G‘afur G‘ulomning "Vaqt" she'rida qo‘llangan Gerostrat nomi qanday badiiy-g‘oyaviy maqsad uchun xizmat qilgan?
A) Insonlar ezgu ishlarni ko‘proq nom taratish uchun qilishi kerakligini anglatish uchun
B) Insonlar hamisha yod etishi uchun har qanday mushkul ishni ham amalga oshira olish kerakligini anglatish uchun
C) Inson o‘z nomining qanchalik ko‘p ulug‘lanishini xohlasa, shunchalik ulkan ishlarga qo‘l urishi kerakligini anglatish uchun
D) Inson shuhrat taratish uchun biror buzg‘unchilikka qo‘l urishi noto‘g‘ri ekanligini anglatish uchun

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi.
21. Berilgan gap haqida to‘g‘ri hukmni toping.
Serhosil dalalarda quyoshli kunlar boshlandi. Yam-yashil va go‘zal tabiatdagi qushlarning yoqimli sayrashi, yomg‘irning to‘satdan yog‘ib qolishi sizni yana ham xursand qiladi, kayfiyatingizni ko‘taradi.
A) Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra uch turi qatnashgan.
B) Barcha sifatlar gapda aniqlovchi bo‘lib kelgan.
C) Otlashgan va otlashmagan sifatlar qo‘llangan.
D) Ikki xil darajadagi sifatlar qatnashgan.

22. Berilgan gap haqida to‘g‘ri hukmni toping.
Zamonamiz yoshlari, siz shavkatli va boy tariximizni qadrlashingiz, uni o‘z hissangiz bilan boyitishingiz kerak. Vatanimizdagi har bir go‘sha biz uchun azizdir.
A) Egalar bir turkum bilan ifodalangan.
B) Kesimning tuzilishiga ko‘ra faqat bir turi qo‘llangan.
C) gapdagi barcha aniqlovchilar to‘ldiruvchilarga tobelangan.
D) Har xil gap bo‘laklari uyushishi kuzatilgan.

23. Olimning yomonligi kemaning sinishiga o‘xshaydi, chunki kema sinsa ham o‘zi cho‘kadi, ham o‘zgalarni cho‘ktiradi.
Ushbu gapda qatnashgan aniqlovchilar haqida berilgan qaysi hukm to‘g‘ri?
A) Ushbu gapda aniqlovchilar gapdagi bir xil bo‘lakka tobelanib kelishi kuzatiladi.
B) Ushbu gapda ham hokim, ham tobe qism vazifasini bajara olgan aniqlovchi qatnashgan.
C) Ushbu gapda aniqlovchilarning kesimga to‘g‘ridan to‘g‘ri tobelanishi kuzatiladi.
D) Ushbu gapda aniqlovchilar har xil so‘z turkumi bilan ifodalangan bo‘laklarga tobelangan.

24. Har ikkala gapda ishtirok etgan fe'l shakllarini aniqlang.
I. *Ishing chappa ketganida diling og‘rib, chekma g‘am,*
Chunki zulmat ichidadir obi hayot suvi ham.
II. *Qo‘lda elab xamir qilmoq so‘nmagan ohak toshni,*
Oson ishdir, amirga egishdan aziz boshni.
1) sof fe'l; 2) qo‘shma fe'l; 3) buyruq maylidagi fe'l; 4) o‘timsiz fe'l; 5) II shaxs fe'li.
A) faqat 1, 3
B) faqat 2, 4
C) 2, 4, 5
D) 2, 3, 4

25. "Illiada" dostoni haqidagi to‘g‘ri hukmni toping.

A) Dostonda Troya urushidan yaralangan bosh qahramonning shaxsiy hayotidagi o‘zgarishlar haqida so‘z borgan.

B) O‘z ukasining ishlariga badal to‘lagan mehribon va jasoratli aka qismati ochib berilgan.

C) Muhabbati tufayli juda katta janglarga sababchi bo‘lgan Andromaxa o‘zini o‘zi o‘ldirishi ko‘rsatilgan.

D) Paris yarim ma'bud bo‘lishiga qaramay, parchada akasining o‘limini jimgina qal'a ustidan kuzatganligi aks etgan.

26. So‘zlar shakl va mazmuniy munosabatga ko‘ra to‘g‘ri tavsiflangan javobni aniqlang.



A) faqat 2 B) 1, 4 C) 2, 3 D) faqat 3

Matnni o‘qing va quyidagi savollarga javob bering.

HIMOYACHI JIGAR

Odam tanasini ulkan zavodga o‘xshatish mumkin. Ovqatlanganimizda, yurganimizda, o‘ylaganimizda, hatto uxlayotganimizda ham tanamizdagi milliardlab hujayralar tinimsiz ishlab turadi. Bu "zavod"ning eng katta va eng mehnatkash ishchisi nimaligini bilasizmi? Bu – jigar. U insondagi eng katta ichki organ bo‘lib, og‘irligi 1,5 kg keladi. U bir vaqtning o‘zida 500 dan ortiq vazifani bajaradi. Shifokorlar bejiz jigarni odam organizmining filtri deb atashmaydi. Chunki jigar ichimizga kirib qolgan turli zararli moddalardan bizni himoyalash uchun tinmay harakat qiladi. Tanadagi qon aylanishi inson hayotini ta'minlab turadi. Qon tana bo‘ylab bir marta aylanganida tarkibidagi barcha foydali moddalarni sarflab bo‘ladi. Endi qonni qaytadan zarur moddalar bilan to‘yintirish, jonlantirish kerak! Bu vazifaga esa jigar mas'ul hisoblanadi. Xuddi kimyoviy laboratoriyaga o‘xshab ketadigan jigarimiz o‘ziga quyilgan qonni "tekshiradi", uning tarkibini aniqlaydi. Qaysi moddadan ko‘proq, qaysi moddadan kamroq qo‘shishni "o‘ylab ko‘radi". Agar shu kuni ko‘p ovqat yeganimizdan oshqozonimiz qiynalayotgan bo‘lsa, jigarimiz buni ham hisobga oladi. Jigarimizning 70 foizi suvdan tashkil topgan. U bir soatda 100 litr qonni tozalab beradi. Bir kunda jigar filtrlangan qon bilan 7 ta vannani to‘ldirishi mumkin.

27. Matn mazmuniga oid to‘g‘ri fikrni toping

A) Shifokorlar jigarning og‘irligi 1,5 kg bo‘lganligi uchun uni inson organizmining filtri deb atashadi.

B) Jigar bir vaqtda 500 dan ziyod vazifani bajaruvchi eng katta ichki organ hisoblanadi.

C) Inson organizmi bo‘lgan jigarning teng yarmi suyuqlikdan tashkil topgan.

D) Inson uyqu vatida organizmdagi hujayralar ham uyqu rejimiga o‘tadi.

28. Matn mazmunidan kelib chiqib jigarning asosiy vazifasi nima ekanligini aniqlang.
A) odam tanasiga quvvat berish
B) qonni kislorod bilan boyitib berish
C) qonni tozalab berish
D) qonni tomirlab bo‘ylab haydab turish

She’riy parchani o‘qing va quyidagi savollarga javob bering.
Noz-u ado-u g‘amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo‘lur bir odamizod ustina.
Man xastag‘a jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko‘zi bedod etar har lahza bedod ustina.
29. Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub ushbu parcha haqidagi xato hukmni aniqlang.
A) Ma’shuqaning noz-u adov-u g‘amzasi oshiqqa azob berishi, ustiga dam-badam ofat yog‘dirishi mubolag‘a qilingan.
B) Ma’shuqaning jon oluvchi qotil ko‘zlari oshiqqa zulm qilayotgani tasvirlangan.
C) Oshiq o‘z yoridan kechsa, ma’shuqasining azoblardan xasta bo‘lishi bayon qilingan.
D) Oshiq shunchalik ko‘p azoblangani, endi jonini ham asrab qolishi qiyin bo‘layotgani aks etgan.

30. Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub ushbu parcha haqidagi to‘g‘ri hukmni aniqlang.
A) Mutlaq va muqayyad qofiya qo‘llangan.
B) Tanosub san’ati qo‘llangan
C) Radif mavjud emas.
D) Unli va undosh tovush raviy bo‘lib kelgan.